



Qiziqarli fAKTlar

Aleksandr Suchkov

Marufa Azizova

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi qiziqarli yangiliklarga bag'ishlangan navbatdagi sahifamizda aqlii shaharlar haqida fikr yuritiladi.



Aqli shahar (ingliz tilida smart city) — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Internet vositalar (IoT) ning o'zaro ta'siri hamda shahar mulkini boshqarish uchun mo'ljallangan infratuzilmadir.

Boshqacha aytganda, dunyodagi eng aqlii shaharlar aholisining turmush darajasini yaxshilash uchun barcha resurslardan foydalanshga mo'ljallangan.

Raqamli shaharlarni babolashning asosiy mezonlari:

- 4G mobil aloqa;
- Wi-Fi ulanish nuqtalari sonining ko'pligi;
- smartfonlar servislarni boshqarish universal vositasi sifatida;
- aqlii to'xtash joylari;
- avtomobilarni almashtirish xizmatlari (karshering);

- transport harakatining optimallashgan tizimi;
- davlat xizmatlariga onlayn-ulanish;
- chiqindilarning qayta ishlaniши;
- shaharliklarning faol fuqaroli pozitsiyasi;
- ekologik toza energiya manbalari.

Aholi turar-joylari «aqlilashib» qoldi. Bunga yuqori tezlikda veb-ulanishlarni kengaytirish va Internet-axborot vositalarini joriy qilish tu-fayli erishildi. Ma'lum bo'lishicha, nafaqat rivojlangan mamlakatlarning poytaxtlari aqlii shahar-smart siti maqomini olishga tuyassar bo'ladi. EasyPark — Shveysariyaning IT-kompaniyasi bo'lib hisoblanadi. EasyPark tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari bo'yicha sayyoramizdagi eng aqlii shaharlar ro'yxati ishlab chiqildi.

Top-10 SMART CITIES

10-o'rinn: Melburn (Avstraliya)

2017-yilda dunyoning eng aqli shaharlari reytingida Avstraliyaning Melburn shahri yetakchilik qilgandi, bu — aholining yuqori turmush darajasi va ta'lim sifati, yaxshi ish sharoitlari hamda rivojlangan infratu-

zilmaga ega bo'lgan shahardir. Mahalliy muhandislar ishtirokida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalardan biri piyodalar uchun sharoitlarni yaxshilashdir. Maxsus ilovalardan foydalangan holda, piyodaning keytayotgan joyi haqidagi ma'lumot smartfon orqali serverga uzatiladi. Tizim

odamlarning sonini har kuni hisoblab boradi va aholining zichligini hisoblashni amalga oshiradi va ayniqsa, odamlar ko'p bo'lgan joylarda ularning oqimini tartibga soladi.

9-o'rinni: Jeneva (Shveytsariya)

Shaharning katta andron kollayderga yaqin joylashganligiga qaramasdan, Jeneva, chiqindilarni qayta ishlash, shuningdek, aqliy uylarni qurish ishlari amalga oshirilganligi uchun reytingda maksimal o'n ball oldi. 2020-yilgacha hukumat atmosferaga karbonat angidrid chiqarilishi hozirgi hajmining to'rtadan bir qismiga kamaytirishni rejalashtirmoqda.

8-o'rinni: Amsterdam (Niderlandi)

Gollandiyaning moliyaviy va madaniy poytaxti shaharning ijtimoiy hayotiga aholining faol jalb etilishi va davlat xizmatlariga onlaysan ulanishi tufayli reytingda o'z o'rinni topdi. Bundan tashqari, Amsterdam har yili ko'plab sayyoohlarni jalb qiladi. Shuningdek, yangi biznes harakatlarini boshlash uchun yaxshi imkoniyatlarga ega. Shahar aholisi uchun Amsterdam Smart City deb nomlangan web-sayt yaratildi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda, platformalar ko'zi ojizlar va boshqa nogiron odamlarga yordam berish uchun mo'ljallangan ilova dasturini qo'llab-quvvatlaydi. Koll-markaz chaqiriq markazi xodimlari ular ko'chalarda harakat qilishlarida yordam beradi.

7-o'rinni: San-Fransisko (AQSH)


O'nta aqliy shaharlardan biri bo'lgan ushbu sayyoohlilik markazi, bu yerda uyushtirilgan muvaffaqiyatlari startaplari bilan barchani hayratga soladi. San-Fransisko boshqa shaharlar bilan taqqoslaganda Internetga ularish tezligi bo'yicha smart-shaharlar ro'yxatidan yetakchi o'rinni egalaydi.

6-o'rinni: Tokio (Yaponiya)

Kunchiqarmamlakat poytaxtiyirik xalqaro axborot-iqtisodiy markazidir. Shaharda ko'plab nufuzli kollej va universitetlar, shuningdek, yiliga taxminan 14 milliard yulovchi foydalanadigan 100 dan ortiq liniyalarni birlashtirgan rivojlangan temir yo'l infratuzilmasi mayjud. Smart-kartalar tizimi va Wi-Fi nuqtalarining keng tarmog'i reytingda boshqa smart-shaharlardan o'zib ketishga imkon berdi.

5-o'rinni: Boston (AQSH)

Amerikaning eng qadimiy va eng badavlat shaharlaridan biri bo'lib, iqtisodiyotning bank, moliya va sug'urta sohalarida ustunlik qiladi. Massachusetts shtati poytaxtida butun dunyoda eng katta nashriyotlarning faoliyatini davom etmoqda va Garvard universiteti hamda Massachusetts Texnologiya Instituti har yili keskin rivojlanib bormoqda. EasyPark to-



San-Fransisko (AQSH)



Melburn (Avstraliya)



Jeneva (Shveytsariya)



Amsterdam (Niderlandi)



Tokio (Yaponiya)

monidan ta'lrim va biznes sohalari rivojlantirilganligi uchun shaharga eng yuqori — 10 ball berildi.

4-o'rinn: Tsyurix (Shveysariya)

Shveysariyaning eng yirik moliyaviy va ilmiy markazi bo'lib, unda mavjud ko'plab xalqaro banklardan tashqari, jamoat transporti yo'lovchilarini tashishni tashkil etish darajasi, aqlii binolar va qayta ishlash tizimi bilan aholisini shod qiladi. Tsurix shahrida 2024-yilgacha qayta tiklanadigan manbalar tomonidan yuklarni tashish uchun yer osti tarmog'ini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

3-o'rinn: Stokholm (Shvetsiya)

Shvetsiyaning asosiy shaharlardan biri davlat xizmatlariga onlayn ulanish xizmati uchun eng yuqori ball to'pladi. Shuningdek, Stokgolmda atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan sanoat korxonalarini mavjud emas. Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishda mutaxassislar katta tajribaga ega.

2-o'rinn: Singapur (Singapur)

Jamoat transportining samarali tizimi va fuqarolarning ijtimoiy faolligi uchun o'n ballik baholash tizimida o'n ballni Janubiy-Sharqiy Osiyo davlati oldi. Singapurning bozor iqtisodiyoti yuqori, soliq stavkalari aksinchasiga pastligi shaharni investorlarni jalb qilish uchun ideallashtiradi.

1-o'rinn: Kopengagen (Daniya)

EasyPark reytinggi natijalariga ko'ra, Daniya poytaxti sayyorada eng aqlii shahar deb ataladi. Kopengagen IT-texnologiyalar, ekologiya, tibbiyot, iqtisodiyot, biznes, transport infratuzilmasi sohasida faol rivojlanmoqda. Ko'p yillar ilgari shahar hokimi aholi uchun ma'lumotlar almashinuvni ma'lumotlar bazasi — ochiq va ommayiv axborotga ega onlayn-platforma onlayn-maydoncha (City Data Exchange)ning ishga tushirilishini e'lon qilgandi. Kopengagenda asosiy e'tibor ma'lumotlarni almashish bo'yicha shahar ma'lumotlar bazasining asosiy vazifalaridan tashqari, ma'lumotlarga ularish xizmatini yanada ekologik jihatdan sog'omlashtirishga qaratilgan.

Maxsus dasturlar zararli moddalarning atmosferaga chiqishi oqibatlarini kamaytirish haqida qayg'urishni talab etadi. 2017-yilda Kopengagen hukumati velosipedlarga atrof-muhitning ifloslanishi va yo'llardagi tirbandlik darajasini ko'rsatuvchi maxsus hisoblagichlar bilan jihozlash loyihasini ma'qullagandi. Dunyoning eng aqlii shahriga berilgan faxriy unvon Yevropa, Osiyo va Rossianing tabiyi resurslaridan foydalanish va infratuzilmani rivojlantirishni optimallashtirishga undaydi. Ehtimol, 2018-yil yakunida smart-shaharlar ro'yxati keskin o'zgarar.


Manba: <https://robo-sapiens.ru>



Boston (AQSH)



Tsyurix (Shveysariya)



Stokholm (Shvetsiya)



Singapur (Singapur)



Kopengagen (Daniya)